

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 4

tsuull.uz  
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 4

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[uzlc.tsuull.uz](http://uzlc.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nozliya Normurodova  
**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

### **Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nozliya Normurodova

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

### Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

## MUNDARIJA

### LINGVISTIKA

#### **Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova**

O'zbek tilida metafora va metonimiya shakllanishida milliy tafakkurning o'rni.....6

#### **Zoxira Xidraliyeva**

Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarining o'zaro munosabati .....23

#### **Hairatullah Barlas**

Tuhfetul-Abidin'in Şekil Özellikleri .....35

### ADABIYOTSHUNOSLIK

#### **Elmira Adilbekova**

Hacı Bektaş Veli'nin Ahlaki Düşüncesi: Anadolu Tasavvuf Geleneğinde Etik Bir Yaklaşım.....51

#### **Feruza Burxonova**

Ijodkor konsepsiyasi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.....72

#### **Parviz Izzatillayev**

Asliy matn va forsiy tarjima qiyosi: "Majolis un-nafois" – "Hasht bihisht" .....89

#### **Gulrux Xudoyorova**

Lirik kechinma tabiati .....110

#### **Тюркан Вердиева**

Отражение литературно-культурной среды Гянджи XII века в драматических произведениях XX века Мехти Гусейна и Камали Агаевой .....127

#### **Leyla Karimova**

Makedoniyalı İskenderin Azərbaycana Seyaheti: Tarih ve Nizami Gencevinin Hayal Dünyasında Yansıması .....140

### SOTSILOGIYA

#### **Fatxulla Abduvaliyev**

Globalashuv jarayonlarining ta'lim migratsiyasiga ta'siri .....152

## CONTENT

### LINGUISTICS

- Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova**  
The role of National Worldview in the Formation of Metaphor  
and Metonymy in the Uzbek Language.....6
- Zakhira Khidraliyeva**  
The Relationship Between the Oghuz Dialects  
of Southern Kazakhstan.....23
- Hayratullah Barlas**  
Formal Characteristics of *Tuhfetul-Abidin* .....35

### LITERATURE

- Elmira Adilbekova**  
The Moral Philosophy of Haci Bektaş Veli: an Ethical  
Approach in the Anatolian Sufi Tradition .....51
- Feruza Burkhanova**  
The Concept of the Creative author and Ideological–Artistic  
Characteristics.....72
- Parviz Izzatillaev**  
Comparison of the Original Text and the Persian Translation:  
“Majolis un-Nafois” – “Hasht Bihisht” .....89
- Gulrukh Khudoyorova**  
The Nature of Lyrical Experience.....110
- Turkan Verdiyeva**  
Reflection of the Literary and Cultural Sphere of the  
XII<sup>th</sup> Century Ganja in the XX<sup>th</sup> Century Dramas of Mehdi  
Huseyn and Kamala Agayeva .....127
- Leyla Karimova**  
The Journey Alexander of Makedonian the Great to  
Azerbaijan: its Reflection in History and in Nizami Ganjavi’s  
imaginative World .....140

### SOCIOLOGY

- Fathulla Abduvaliev**  
The Impact of Globalization Processes on Educational Migration.....152

## SOTSILOGIYA

## SOCIOLOGY

## Globalashuv jarayonlarining ta'lim migratsiyasiga ta'siri

Fatxulla Abduvaliyev<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada ta'lim migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tizimidagi izohlari hisoblangan "intellektual migratsiya", "ta'lim migratsiyasi", "aql egalari" kabi atamalarning mamlakatdan chiqib ketishi kabi ilmiy atamalar ilgari surilib, unda aholining mobil, ya'ni doimiy harakatdagi qatlamlarining ijtimoiy xususiyatlari sotsiologik jihatdan qiyosiy tahlil etilgan. Ta'lim yoki intellektual migratsiyaning tarixiy shakllanish bosqichlari, ilmiy asosi davriy (sirkulyatsiya) ahamiyat kasb etib, uning vujudga kelish mezonlari, ijtimoiy sabablari ilmiy tasniflangan. Jamiyatning axborotlashuvi, dunyoning globallashib borishi natijasida keyingi yigirma yil ichida alohida mavzuga aylangan migratsiya mavzusi muallif tomonidan zamonaviy sotsiologiyaning ekspertlari tomonidan ilgari surilayotgan "yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlar migratsiyasi", "intellektual oqim", "intellektual salohiyatning chiqib ketishi", "iste'dodli va aqli kishilarning horijga chiqib ketishi" kabi qarashlari asosida sotsiolog nuqtayi nazaridan tizimli tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** *migratsiya, intellektual migratsiya, ta'lim migratsiyasi, innovatsiya, globallashuv, integratsiya, multikulturalizm, identiklik, mentalitet, stereotip.*

### Kirish

Migratsiya jarayonlarining transformatsiyalashuvi, bir tomondan, jamiyat etnomadaniy xilma-xilligi bilan bog'liq xavf-xatarlarni kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan, sotsiumlar rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun, jamiyat etnomadaniy strukturasiidagi o'zgarishlarning integrativ potentsiali turli madaniyatlar rivojlanishini boshqarish modellarini topish, ularni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini yaratishga ham

---

<sup>1</sup> *Abduvaliyev Fathulla* – sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat texnika universiteti rektorining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi.

**E-pochta:** fatxullaabduvaliyev@gmail.com

**ORCID ID:** 1214-3244-4222-3245

**Iqtibos uchun:** Abduvaliev, F. 2025. "Globalashuv jarayonlarining ta'lim migratsiyasiga ta'siri". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 152 – 169.

bog'liq. Ayniqsa, migratsiyaviy jarayonlar globallashayotgan va kuchayib borayotgan hozirgi davrda shakllanayotgan interkulturalizm, multikulturalizm etnomadaniy o'zgarishlarga muqobil sotsiologik yondashuvlar obyekti bo'lib qolmoqda.

So'nggi yigirma yil ichida migratsiya mavzusi turli soha vakillariga mansub ko'plab ilmiy izlanuvchilarning tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Muammo obyektining ko'lami yiriklashib, hajmi ortib borgani sari keng jamoatchilik o'rtasida migratsiyaga oid munozarali bahs-munozaralar ham sezilarli ravishda ko'paydi. Ommaviy axborot vositalari, turli ilmiy manbalar va ijtimoiy tarmoqlarda etnik, ekologik, mehnat migratsiyasiga oid bir qator tahliliy maqola va turkum chiqishlar soni oshib borar ekan, ushbu tahlillar ichida "intellektual migratsiya" tushunchasiga alohida to'xtalish va izohlar beriladigan bo'lindi. Ushbu tushunchaning tahlili murakkablashib borgani sari, uning sinonimi bo'lgan "yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlar migratsiyasi", "intellektual oqim", "intellektual salohiyatning chiqib ketishi", "iste'dodli va aqlli kishilarning chiqib ketishi" kabi qarashlar alohida bahs-munozaralar predmetiga aylanib ulgurdi.

### **Asosiy qism**

Umuman olganda, bugungi kunning dolzarb muammosiga aylangan migratsiya masalalariga oid tadqiqotlar avvaliga demografiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, huquqshunoslik kabi fanlarning diqqat markazida turgan bo'lsa, bugunga kelib u xalqaro munosabatlar va yuqori siyosat darajasiga ko'tarildi. Migrantlarni "eksport" qiluvchi davlatlar ro'yxatida turuvchi O'zbekiston ham, tabiiyki, bundan mustasno emas.

Zamonaviy migratsiya jarayonlari bozor talablaridan kelib chiqib, aholi turmush tarzini ifodalovchi hodisa sifatida boshlanib, unda asosiy urg'u "ish joyi", "bandlik" va "mehnatga haq to'lash" omillarining u yoki bu jihatlarini ifodalash asosida vujudga keldi. So'nggi o'n yilliklardagi tadqiqot ishlari, matbuot xabarlarida "mehnat migratsiyasi" deb nomlangan jarayon turlicha talqin etilib, qarashlardan kelib chiqqan holda turli xil nizoli vaziyatlarni vujudga keltirar edi. Ayniqsa, qabul qiluvchi davlatlar fuqarolari tomonidan o'z yurtlariga kirib kelgan "kutilmagan mehmon"larni madaniy, etnik, diniy, turmush tarzi xususiyatlariga ko'ra qabul qila olmaslik bir qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarar edi. Katta va yirik shaharlarda miqdor jihatidan ko'payib borayotgan malakasiz ishchi kuchi, mahalliy aholi tilida gaplasha olmaslik,

madaniyat va urf-odatlarini bilmaslik, joylardagi turmush tarzi va kundalik hayotga moslasha olmaslik noroziliklarga sabab bo'lardi.

Har qanday migratsiya oqimi ichida ba'zida sezilar sezilmas, ba'zan ko'proq miqdorda intellektual va yuqori bilimli kishilarning borligi ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarni yanada murakkablashtirar, mavjud umuminsoniy qadriyatlar chegarasining buzilish holatlari oshib borгани sari ichki noroziliklar ham ko'payib borardi.

2008 - 2018-yillardagi migrantlar akkulturasiya jarayoni, ularni qabul qiluvchi jamiyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan statistik-sotsiologik ko'rsatkichlar indikatorlari dinamikasi o'rganilib, ular migrantlar ehtiyojlari, maqsadlari, manfaatlari xilmaxilligi, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari dinamik o'sib borish qonuniga mos tadrijiy o'zgarib turishini ko'rsatdi. Bu jarayonda migrantlarning milliy o'zligini (identikligini), konfessional mansubligini, sotsial maqomini anglashi ularning ijtimoiylashish darajasi va xarakteriga mos bo'ladi. Bu ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar ta'sirida shakllangan ijtimoiylashgan migrant sotsial qiyofasi, ongi va hayot tarzining ma'naviy-axloqiy, sotsiologik masalalarini umumlashtirib, mavzu doirasida tadqiq qilishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar tizimida intellektual migratsiya, xususan, ta'lim sohasida yoshlar migratsiyasi dinamikasining oshib borishi, muammoning ilmiy fenomenini belgilab beruvchi nazariy-metodologik jihatlarining qanday yoritilganligiga bo'lgan e'tiborni tortadi. Umumun olganda, dunyo miqyosida globallashuv va integratsiya jarayonlarining kechishi, ta'lim tizimining xalqaro darajada umumlashib borishi intellektual migratsiya dinamikasi va transformatsiyalashuviga keskin ta'sir o'tkaza boshladi. Zamonaviy dunyoning manzarasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, intellektual migratsiyaning intensiv rivojlanib borayotganligini kuzatib borish mumkin. Uning rivojlanishi "ichki", "tashqi", "mayoqsimon" shaklda oddiylikdan murakkablikka qarab oshib bormoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, 2030-yilga borib yer yuzi aholisining 4 mlrd.dan ziyodi rivojlangan va taraqqiy etgan shaharlarda istiqomat qilishi aytiladi. Ushbu statistik ma'lumotlar natijalari dunyo aholisining qariyb 50% ni tashkil etadi. Ammo, masalaning ikkinchi jihati mavjud bo'lib, aholining qolgan ikkinchi qismi o'rtasida yuqori darajadagi ta'lim va turmush sifatining o'zgarib borish dinamikasi holati qay darajada kechishini tadqiq etish yangi ilmiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Boisi, intellektual oqim ichki migratsiya sharoitida qishloq joylari,

tuman, kichik va o'rta shaharlardan poytaxt yoki yirik shaharlarga qarab harakatlansa, tashqi migratsiyada rivojlanib kelayotgan yoki qisman rivojlangan mamlakatlar universitet (tadqiqot markazi)-larida faoliyat yuritadigan yuqori kasbiy mahoratga ega ilmiy xodim (professor-o'qituvchi)lar va iste'dodli talaba yoshlarning taraqqiy etgan, salohiyat va imkoniyati yuqori bo'lgan mamlakatlardagi universitetlarga chiqib ketish tendensiyasi kuchayib bormoqda.

### **Intellekt migrantlari**

Dunyo bo'ylab "megapolis", ya'ni yirik va nihoyatda katta shaharlarning ko'payib borishi tabiiy ravishda uning energetika, texnik va elektron infratuzilmasini boshqaradigan intellektual salohiyatga ehtiyojni oshiradi. O'z navbatida, megapolislarda joylashgan ko'plab universitetlar, yuzlab tadqiqot markazlari va laboratoriyalarning ish yuritishi uchun zamin yaratadi. Bu esa ichki imkoniyatlar doirasida amalga oshirilmaydigan hodisa bo'lib, bo'sh ish o'rinlarni to'ldirish, kerakli va zarur soha hamda mutaxassisliklarni sifatli kadrlar zaxirasi bilan ta'minlash uchun intellektual migratsiyaga ehtiyojni oshirib boradi.

So'nggi yillarda taraqqiy etgan mamlakatlarda koinotni zabt etishga bo'lgan urinishlar, yirik sanoat va biznes korporatsiyalar o'rtasidagi kuchli raqobat, texnogen va ekologik ofatlarning ko'payib borishi, dunyo ijtimoiy-siyosiy manzarasida inson omiliga bo'lgan e'tiborning ortib borishi kabi hodisalar ham intellektual migratsiyaning tezlashuviga sabab bo'lmoqda. Xalqaro tajribada intellektual migratsiyani jalb etish, boshqarish va nazorat etish AQShning "Silikon vodiysi" misolida o'zining samarali natijalarini bera boshladi. Totalitar, avtoritar boshqaruv tizimiga asoslangan ayrim mamlakatlardagi asosiy muammo intellektual salohiyat egasi bo'lgan iste'dodli va qobiliyatli kishilarni jamiyat ijtimoiy hayotiga yo'naltirish, jalb etish va ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalana bilmaslik kabi muammolar bilan farqlangan.

Yaqin yuz yil ichidagi tarixga e'tibor qaratsa, shu kabi jihatlarni sobiq SSSR miqyosida ham sodir bo'lganligini kuzatish mumkin. XX asrning 30-yillaridan 60-yillariga qadar ko'plab iste'dodli kishilarning hukumat tomonidan qatag'onga uchrashi, 60-70-yillarda esa intellektual kasb egalarini sifatli boshqarish imkoniyatlarining yetishmasligi sababli, ularni xorijga chiqarib yuborish kabi holatlar ham ko'p kuzatilgan.

Ikkinchi tomondan, ijtimoiy taraqqiyotni rivojlantirishga hissa qo'shadigan ko'plab sohalarning iste'dodli vakillarini

masofada ushlab turish uchun ulkan mamlakatning eng chekka hududlari, xususan, Sibir yerlariga yuborish, shu joyda ularning kuchidan foydalanish yo'llari o'ylab topildi. Jumladan, Novosibirsk shahrida yirik fan va ta'lim markazi vujudga keldi. Balki bu kabi masofadan turib boshqarish usuli u qadar samarali natijalar bermagan bo'lishi mumkin, ammo yuksak maqsadlar uchun "mo'jallanmagan" ushbu tajriba universitetlar va ularning negizidagi tadqiqot laboratoriyalarining markazlashuviga olib keldi. Bu esa kompleks ravishda tadqiqotlarning takomillashuviga turtki berdi.

Har qanday jamiyat, ayniqsa, u taraqqiy etib kelayotgan mamlakatlar sirasiga kirayotgan bo'lsa, mavjud va kutilayotgan intellektual migratsiyaga tayyor turishi kerak. E'tiborni quyidagi statistik ma'lumotga qaratamiz. 1992-yili Moskva shahrida jami 81 ta oliy o'quv yurti faoliyat olib borgan bo'lib, ular davlat munitsipal xarakteriga ega bo'lgan. Shu yillari ushbu ta'lim maskanlarida 465 300 talaba tahsil olgan. 2009-yilga kelib, Moskva shahridagi universitetlar soni 264 taga yetdi va shundan 109 tasi davlat yoki munitsipal boshqaruviga asoslangan bo'lib, qolganlari xususiy maqomda shakllantirilgan. Shu yili oliy ma'lumot olish uchun harakat qilayotgan talaba yoshlarning jami miqdori 1 mln 281 100 tani tashkil etgan. Ayni vaqtda Moskva shahrida 298 ta universitet mavjud bo'lib, unda 1 mln. 510.800 ta talaba tahsil oladi.

Xalqaro tajribadan ma'lumki, universitetlarning ko'pligi va unda mamlakat yoshlarining uchdan bir qismini oliy ta'limda bandligi intellektual migratsiyaning oldini olish yoki bu jarayon sodir bo'lgan taqdirda ham yuqori miqdordagi ma'naviy zararining oldini olish imkonini beradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, MDH davlatlarida intellektual migratsiyaning kuchayishi 2005-yilga to'g'ri kelib, unda intellekt sohibi bo'lgan iste'dodli malakali kadrlarning migratsiya jarayonlaridagi ishtirokida ichki, tashqi va mayoqsimon bo'lgan intellektual migratsiya tabiiy shart-sharoitlarda amalga oshirilib, unga shart-sharoit yaratib bergan mamlakatlar katta foyda ko'rganlar [Шиш-кина 2009, 181-185].

Tashqi intellektual migratsiya bir davlatdan ikkinchi davlatga borish (tashrif) bilan belgilanadi. Umuman olganda, tashqi intellektual migratsiya tarixiy ahamiyat kasb etib, u hamma davrlarda vaziyatga qarab sodir bo'lgan. Doimiy urushlar, turli xil talofotlar, etnik, diniy, mamlakat va davlatlararo mojarolar, kambag'allik, ilm uchun zarur shart-sharoitlar yo'qligi va boshqa

sabablar tufayli vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tanazzullar natijasida ko'plab iste'dodli, qobiliyatli kishilar o'z vatanlarini tashlab, boshqa mamlakatlarga chiqib ketishlari tarixdan ma'lum. Ulug' alloma va mutafakkir vatandoshlarimizdan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, al-Farg'oniy, Imom Buxoriy va boshqalar shular jumlasidan bo'lib, ushbu ro'yxatni bugungi kun bilan ham davom ettirish mumkin. Ikkinchi tomondan, intellektual migratsiya eng avjiga chiqqan davrlarda ularni qabul qilgan jamiyatlarda taraqqiyot va rivojlanish misli ko'rilmagan darajada renessans cho'qqilarini belgilab bergan holatlar ham yetarlicha uchraydi.

### **Ta'lim migratsiyasining faollashuvi**

XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida dunyo xaritasi keskin o'zgarib ketdi. Taniqli sotsiolog F.Fukuyama ushbu holatni "Tarixning so'nishi" [Фукуяма 2015, 89] deb nomlaydi. Haqiqatdan ham, XX asr oxirlariga kelib sotsialistik tizimning parchalanib ketishi, yer yuzida turli siyosiy nizolarning avj olishiga olib keldi va bir vaqtning o'zida migratsiyaning bir necha omillarini vujudga keltirdi. Bunda biz siyosiy migrantlar (qochoqlar, dissidentlar va b.), etnik migrantlar (tarixiy vatanga qaytish), mehnat migrantlari (ish izlab ketish), ekologik migrantlar (ekomuhitning keskin buzilishi natijasida o'z tug'ilgan joyini tashlab ketishga majbur bo'lish) kabi ko'rinishlarni kuzatdik va uning ta'sirida intellektual migratsiyaning ham avj olishiga guvoh bo'ldik.

XX asrning 90-yillarida sodir bo'lgan siyosiy nizolarning davomiylik darajasi oshib borishi nafaqat migrantlar "yetishtirib beruvchi" (eksport qiluvchi) mamlakatlarning ijtimoiy-madaniy va siyosiy turmush tarziga ta'sir o'tkazdi. Balki ularni qabul qiluvchi mamlakatlarning kundalik hayoti, turmush tarzi, ijtimoiy xarakteri va ruhiy kayfiyatiga ham u yoki bu darajada o'zining ta'sirini o'tkazdi. Hattoki birinchi va ikkinchi jahon urushi yillarida ham yer yuzi XX asrning 90-yillari va bugungi kun kabi migrantlar faollashuvining eng yuqori ko'rsatkichlarini namoyon qilmagan.

Migrantlar oqimining faollashuviga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri sifatida hamon etnik yoki diniy-konfessional mazmundagi ijtimoiy-siyosiy nizolar ustuvorlik qilmoqda. Shuningdek, ayrim mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarning taranglashib borishi, kambag'allik va qashshoqlik darajasining oshib ketishi ham migratsiya jarayonlarining oshib ketishiga olib keldi. XX asrning birinchi yarmida yuz bergan

Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari, 90-yillarga kelib sotsialistik lagerning barham topishi butun dunyoda aholining migratsiya jarayonlaridagi ishtirokini ochiq obyektiv jarayonga aylantirdi. Ayniqsa, o'tgan asrning 90-yillaridagi migratsiya sur'ati oshishiga ilg'or sanoatlashgan-texnologik tizim, dunyoning globallashuviga intilishi va davlatlararo integratsiya, global urbanizatsiya jarayonlari kuchli ta'sir o'tkazdi. Natijada jamiyatshunos tadqiqotchilar orasida aynan migratsiya masalalarini tadqiq etishga bo'lgan qiziqish keskin ortdi.

Intellektual migratsiyaning faollashuvidagi ikkinchi omil – bu, jamiyat turmush tarzidagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar sifatining tushib ketishi, bunda intellektual soha va kasb egalarining daromad manbalari kamayib ketishi yoki yo'qolib borishi, haddan tashqari ortiqcha byurokratik mexanizmlarning qo'llanishi, kuchli siyosiy-mafkuraviy tazyiqlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Turmush tarzining keskin tushib ketishi, ilmiy faoliyat uchun istiqbolli shart-sharoitlarni yetarli darajada ta'minlab berilmasligi ham intellektual migratsiyaning faollashuviga turtki beradi.

Ayrim jamiyatlarda iste'dodli va qobiliyatli kishilarning o'z kasbiy faoliyatlarida ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etishlarida paydo bo'ladigan to'siqlar ham intellektual migratsiyaning transformatsiyalashuviga sabab bo'ladi. Totalitar, avtoritar va kuchli siyosiy diktaturaga asoslangan jamiyatlarning ilmiy faoliyatga nisbatan tazyiqi intellektual migratsiya faoliyatini statistik ko'payishiga olib keldi. Masalan, Adolf Gitler boshchiligidagi natsistlar Germaniyasining hokimiyat tepasiga kelishi minglab iste'dodli fan arboblari, mutaxassis va tadqiqotchilarni boshqa mamlakatlarga chiqib ketishiga turtki berdi.

### **Globallashuvning ta'lim migratsiyasiga ta'siri**

XXI asrga kelib xalqaro hamjamiyatlarning integratsiyasi hamda globallashgan jamiyat tufayli "fuqarolik jamiyati"ga oid ta'limotlarning jadallashishi bilan Yevropa va MDH davlatlarida intellektual migratsiya yanada faollashadi. Bunda, birinchidan, davlat chegaralaridagi bir qator to'siqlarning olib tashlanishi, xalqaro huquq me'yorlarining ommalashuvi va bir qator davlatlararo hamkorlik aloqalarining shaffof holatga kelishi intellektual migratsiyada bevosita ishtirok etuvchilarning ko'payishiga olib keldi.

Globallashuv jarayonlarining XXI asrga kelib yanada faollashuvi dunyoning siyosiy xaritasi qaytadan o'zgarishi bilan

bog'liq jarayonlar tufayli ijtimoiy xarakterning o'zgarishiga olib keldi. Insonlar tafakkurida "transmilliy munosabatlar" tushunchasi shakllana boshladi. Turmush tarzi va axloqiy-madaniy meyorlarda Sharq va G'arb madaniyati, bir tomondan, uyg'unlashib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bir-birini inkor eta boshladi. Xulq-atvor meyorlarida axborotlashgan jamiyatning ta'siri tufayli axloqiy meyorlar aqliy me'yorlarga o'z o'rnini bo'shatib bormoqda. Dunyo aholisi o'rtasida axborotga tashnalik, har daqiqada sodir bo'layotgan voqealar majmuasini kuzatib borish, atrof-muhitga nisbatan shaffoflik chegaralarining ochilishi dunyo manzarasi va insonlarning ijtimoiy qiyofasini o'zgartirib yubordi. Shunday bo'lsa-da, intellektual migratsiya asosan G'arbga qarab yo'nalganligicha qolmoqda. So'nggi yillarda rivojlangan va taraqqiy etgan Sharq mamlakatlari, xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlar intellektual migratsiyani imkon qadar bilvosita nazorat qila boshladilar.

So'nggi yillarda transmilliy korporatsiyalar intellektual migrantlarni qabul qiluvchi tuzilmaga aylandi. Intellektual migrantlarni jalb etuvchi omillar qatoriga nafaqat xalqning moddiy turmush darajasi, balki ijodiy muhit uchun yaratilgan erkinlik va shart-sharoitlar, yuqori axborot va telekommunikatsiyalarning mavjudligi ham kirib bormoqda. Zamonaviy taraqqiyot va ilg'or texnologiyalar intellektual migratsiyaning geografik o'lchovi va manzilini belgilab berdi. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi taraqqiy etgan davlatlarda yuqori texnologiyaga asoslangan sohalarni taraqqiy etishiga Hindiston, Rossiya, Sharqiy Yevropa kabi mamlakatlarning intellektual qobiliyati manba bo'lib qolmoqda.

XX asrning 50-yillarida Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlaridan G'arbga qarab ommaviy migratsiya jarayonlari kuzatiladi. Tashqi mehnat migratsiyasiga intilish jarayonlari va uning natijasida migrantlar tomonidan o'z oilasiga o'tkazilgan mablag'lar avvaliga moddiy ehtiyojlarga asoslangan bo'lsa, keyinchalik bu jarayon ular farzandlari, yaqinlari, tanishlarining yangi texnologiyalarni o'zlashtirishlari asosida intellektual salohiyatga ko'chadi va mamlakat iqtisodiyotini tez sur'atlarda rivojlanishiga turtki beradi.

Bugungi kunda intellektual migratsiyaning asosiy oqimi Sharqdan G'arbga, Janubdan Shimolga qarab geometrik progress asosida rivojlanmoqda. Aynan intellektual migratsiya G'arb va Shimol mamlakatlarining yuqori hayot darajasi va mehnat shart-

sharoitlarini yuksak darajada ta'minlab berishda yuqori ahamiyat kasb etdi [Лебедева 2014, 253].

Globalashuv davrida intellektual migratsiya migratsiyaning boshqa turlariga nisbatan o'zining alohida aniq belgilangan xususiyatlariga ega bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, intellektual migrantlar, boshqalarga qaraganda, o'zlari boradigan va ish joylari to'g'risida to'liq axborotga ega bo'ladilar. Ular uchun istiqbolda belgilangan ish o'rinlari tanlov asosida turlicha bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, migrantlarning ushbu kategoriyasi internet tamoqlari orqali o'zlariga kerakli bo'lgan joyni aniqlab oladilar va zarur shart-sharoitlarda kerakli shaxslar bilan muloqotga kirishadilar. Ayniqsa, yuqori akademik doiralarda ishtirok etayotgan intellektual migrantga uning maqolalari, asarlari va ilmiy konferensiyada qilgan ma'ruzalari kifoya qiladi;

uchinchidan, intellektual migrantlarning katta qismi bir vaqtning o'zida ikkita joyda istiqomat qila olishi mumkin. Ular o'ziga yangi ish o'rinlarini yaratish, shuning asosida o'z ish joyini saqlay bilishi, shuning barobarida intellektual migrant o'zining daromadini boshqa migrantlarga nisbatan bir necha barobar yaxshilab olishi, xotirjam ravishda o'z vataniga kelib ketishi va ko'plab imkoniyatlardan bepul foydalanishi mumkin;

to'rtinchidan, intellektual migrant o'zga migrant toifalariga nisbatan xotirjam faoliyat yuritishi nizoli vaziyatlarda ishtirok etmasligi, turli tazyiq va kamsitishlardan holi bo'lishi mumkin. Bilim darajasining yuqoriligi, xorijiy tillarni bilishi va ziyolilik darajasi uni o'zga madaniyatga tezda moslashish, shu madaniyat ichida o'zini erkin tuta bilish, o'z haq-huquqini himoya qilish va ulardan bevosita foydalana olish imkonini beradi.

Intellektual migratsiya jarayonlari sotsiologiya sohasining muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib, uni nafaqat o'rganish, balki nazorat va tartibga olish masalalari ham dolzarb ilmiy muammoga aylanib bormoqda. Ko'pqirrali dunyoning intellektual qiyofasi uzoq yillardan beri "aql" migratsiyasi sifatida o'z manzarasini yuqori sifatli ish kuchi ko'rinishda namoyon etayotganligi bilan ijtimoiy ma'naviy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'z navbatida, zamonaviy migratsiya jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari, uning oqibatida yuzaga kelayogan global muammolarni jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, migrantlar milliy mentaliteti va ularning kasbiy identiklik vaziyatini o'rganishga majbur qilmoqda. Agar mehnat migratsiyasi OAV va ilmiy manbalarda, ijtimoiy tarmoqlarda

faol muhokama qilinayotgan bo'lsa, intellektual migratsiya yoki yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlar migratsiyasi "intellektual oqim", "intellektual salohiyatning chiqib ketishi" "aqlilarning chiqib ketishi" kabi g'oyalar alohida bahs munosabatlar predmetiga aylanib ulgurdi, yanada aniq qilib aytganda, muammo davrning dolzarb masalasiga aylandi.

Zamonaviy migratsiya jarayonlari nafaqat bozor talablarini, birinchi navbatda turmush tarzini ifodalovchi ijtimoiy hodisa sifatida aniq ish joyi, doimiy bandlik va mehnatga haq to'lashning qonunchilik asosida ifodalashni talab etadi. So'nggi yillarda "mehnat migratsiyasi" mavzusi OAV, internet ijtimoiy tarmoqlari va matbuot xabarlarida turli xil nizoli vaziyatlarni ifodalab, unda ko'pincha ikki taraflama bir-birini yoqtirmaslik, madaniy munosabatlarga nisbatan toqatsizlik, chidamsizlik kabi omillar istehzoli va maxsus urg'u berilgan holda yoritilmoqda. Qabul qiluvchi davlat fuqarolarining o'z mamlakatlariga kirib kelgan "kutilmagan mehmon"larni madaniy, etnik, diniy, turmush tarzi va hattoki irqiy jihatlariga ko'ra qabul qilolmaslik odat tusiga kirdi. Bizningcha, mehnat migrantlarining stixiyali va tartibsiz ravishda o'z vatanlaridagi qadriyat, urf-odat, udumlarni o'zga yurtlardagi "eksportchisi", ya'ni tashuvchisiga aylanishi qarama-qarshiliklarning bosh mezoni sifatida aks etmoqda. O'z navbatida, diaspora institutlarining shakllanmaganligi ham mehnat migrantlari orasidagi malakasiz ishchilarning mahalliy aholi tili, madaniyati, urf-odatlarini bilmasliklari natijasida ma'lum bir ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Globallashuv jarayonlarida intellektual migratsiyaning faollashuviga integratsiya jarayonlari ham o'z ta'sirini sezilarli darajada o'tkazishini ko'rsata oldi. Globallashuvdagi ishtirok dunyo miqyosida amalga oshadigan bo'lsa, integratsiyalashuv jarayonlari hududiy xususiyatga ega bo'ladi. Unda faoliyat davlatlararo hamkorlik davrasida amalga oshadi. Shunday bo'lsa-da, intellektual migratsiyaning bog'lanish chegarasi integratsiyalashuv va globallashuv omillarida deyarli bir xil holatda ahamiyat kasb etadi. Intellektual migratsiyaning integratsiyalashuv jarayonlaridagi eng yorqin ifodasini 2010-yilda o'zining eng mukammal darajasiga erishgan Yevropa oliy ta'lim makonini tashkil etuvchi Bolonya ta'lim tizimi bilan bog'lash mumkin. Shu yili dunyoning 47 ta davlati Bolonya ta'lim tizimiga a'zo bo'ldi. Uning a'zolari ichida Osiyoning ayrim mamlakatlari yetakchi universitetlarini ham uchratish mumkin.

Intellektual migratsiyasining faollashuvi aslida 1991-yili

Yevropa taraqqiyotini belgilab berish uchun qaror qabul qilingan Bolonya deklaratsiyasining qabul qilinishi va unga ko'ra ta'lim tizimida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida joriy qilingan asosiy talablardan biri, ya'ni talabalar va malakali professorlar almashinuvi, ularning dunyo bo'ylab ijtimoiy mobilligini oshirish masalalariga qaratildi. Bolonya deklaratsiyasi qabul qilingan daslabki vaqtlardan boshlab talabalar almashinuvi jarayoni eng yuqori ko'rsatkichlarni egallab kelmoqda.

### **Ta'limdagi ayirboshlash jarayonlarining migratsiyaga ta'siri**

So'nggi yillardagi kuzatishlar yoki tadqiqot natijalariga e'tibor berilsa, talabalar ayirboshlash jarayonida rivojlangan va taraqqiy etgan universitetlarda ta'lim olish yoki malaka oshirishga borgan yoshlarning katta qismi o'zlari borgan joyda qolib ketdilar yoki ish joyi qidirib topishga muvassar bo'lganlar. Keyinchalik ayni shu hodisa "intellektuallarning chiqib ketishi" degan mazmuni berdi. Nima uchun intellektual migratsiya sharoitida ijtimoiy harakat yoki mobillik "Sharqdan G'arbga" va "Janubdan Shimolga" degan mazmunda ifodalanadi? Agar biz Bolonya ta'lim tizimining intellektual migrantlarning harakatlanish chizmasini kuzatadigan bo'lsak, barcha yo'llar quyidagi mamlakatlar: Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlariga yo'nalganligini kuzatish mumkin.

Sobiq ittifoqning parchalanib ketishi natijasida, shu davrning o'ziga xos bo'lgan intellektual migratsiya tizimi ham inqirozga uchradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 1991-yili SSSR hududidagi oliygohlarda 126 500 ta xorijiy talaba ta'lim olgan bo'lib, ular shu paytda butun dunyodagi xorij talabalarning 10,8 foizini tashkil etgan. Shu vaqtlarda O'zbekistonning o'nlab nufuzli oliy o'quv yurtlarida ham ta'lim olayotgan minglab chet ellik talaba yoshlarni uchratish mumkin edi. Jumladan, o'sha vaqtdagi Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti), Toshkent politexnika instituti (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti), Toshkent aloqa instituti (hozirgi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti), Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash instituti, Toshkent qishloq xo'jaligi instituti (hozirgi Toshkent qishloq xo'jalik akademiyasi), Toshkent davlat tibbiyot instituti (Toshkent Tibbiyot akademiyasi) va boshqa markaziy ta'lim muassalarida o'sha vaqtdagi sotsialistik lagerga a'zo mamlakatlardan yigit-qizlar kelib ilm olishgan.

Bugun ayni vaqtda universitetlarning xalqaro reytingga kirishida yuqori balli ko'rsatkichlar beradigan omillardan biri – bu xorijlik talabalarining tahsil olishi, hamda xorijlik professor-o'qituvchilarning ishlash darajasi va miqdoriga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ikkinchi tomondan, boshqa davlatlardan yosh yigit-qizlarning mahalliy universitetlarda ta'lim olishga yo'naltirish, davlatlararo o'zaro munosabatlarda “yumshoq kuch” tizimining mohirona strategik siyosatini qo'llash imkoniyatini amalga oshiradi.

Ammo, ta'kidlash joizki, “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirishda o'zga mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan mahalliy intellektual migrantlar va boshqa toifadagi migrantlarning ham hissasi katta. Faqat jarayon pozitiv mazmun kasb etishi uchun, ular o'zlari tug'ilib o'sgan vatanlari bilan doimiy aloqada bo'lishlari shart. Har qanday sharoitda ham talaba maqomidagi intellektual migrantlar o'zlari tug'ilib o'sgan mamlakatga nisbatan salbiy kayfiyatda bo'lmasliklarini shakllantirish vakolatli idoralarga muhim vazifalarni yuklaydi. Har qanday sharoitda va munosabatlarda istiqbolni inobatga olib, kishilardan tug'ilib o'sgan diyor uchun qaltis holatlarni paydo qilishga yo'l qo'ymaslik uchun turli xil ilmiy loyihalar, grantlarning amalga oshirilishi samarali natijalar beradi.

2000-2016-yillar mobaynida O'zbekiston ta'lim tizimida talabalar safiga qabul qilish miqdor foizining keskin tushib ketishi, universitetlarga qabul qilish va dars jarayonlarida haddan tashqari korrupsiya elementlarining ko'payishi, natijada minglab yoshlarning xorijga chiqib ketishiga sabab bo'ldi. Ko'plab iqtidorli va qobiliyatli yoshlarning o'z vatanlarida universitetlarda o'qish imkoniyati yo'qligi va kelajakka nisbatan qo'yilgan maqsadlariga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keldi. Natijada Rossiya, Qozog'iston, Qirgiziston, Tojikiston, Ukraina, Xitoy, Turkiya, rivojlangan Sharq va G'arb mamlakatlari universitetlariga minglab yoshlarning ketib qolishlari vertikal holatga aylandi. Uzoqni ko'zlamay olib borilgan bunday “strategik” yondashuv tufayli, nafaqat iste'dodli, harakatchan yoshlar, balki ular bilan birgalikda mamlakatdan katta hajmdagi valyuta oqimi ham chiqib ketdi. Mamlakat ta'lim tizimida esa o'rtacha holdagi iqtidorga ega, o'z sohasiga loqaydlik bilan qaraydigan, kelajakka ishonch ruhiyati so'ngan ziyolilar qatlami shakllana boshladi. Bu esa bir vaqtlar Markaziy Osiyo va hatto sobiq ittifoqning eng ilg'or universitetlari sirasiga kirgan ko'plab ta'lim muassalari reytingi va nufuzini keskin pasaytirib yubordi.

Ta'lim sohasida vujudga kelgan intellektual migratsiya shakllaridan yana biri – bu alohida fenomen bo'lgan va o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi virtual migratsiyadir. Asosan masofaviy o'qishga asoslangan, xorijda ta'lim olishning unchalik katta bo'lmagan muddatda amalga oshiradigan ushbu ko'rinishi jahon pandemiyasi sharoitida yanada rivojlandi. Ushbu tizim tarmoqlarga birlasha boshladi. MDH davlatlari universitetlarining faoliyatida ushbu tizim yanada ommalashib bormoqda. Ayni damda, MDHning 9 ta davlatidan 27 ta universitet virtual tarmoqqa birlashdi. Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlaridan jami 53 ta universitet bugungi kunga kelib virtual tarmoqqa birlashganini ta'kidlab o'tish joiz. Ushbu ko'rsatkich har o'quv yilida yanada oshib borishi mumkin.

Agar MDH davlatlaridagi virtual tarmoqqa birlashgan universitetlarda ta'lim olish mahaliy tillarda olib borilayotgan bo'lsa, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) doirasida o'quv mashg'ulotlari rus va xitoy tillarida o'tkazilmoqda. Bizning fikrimizcha, MDH va SHHT doirasida olib borilayotgan ta'lim sohasi Bolonya deklaratsiyasiga a'zo bo'lgan ta'lim tizimiga nisbat sifatida shakllantirildi. Shunday bo'lsa-da, ta'kidlash mumkinki, Yevropa hududidagi oliy ta'lim Yevroosiyo makonidagi ta'lim bilan ma'lum bir darajada to'qnash keladi va bir-birini to'ldiradi. Masalan, ilmiy konferensiya, seminarlar, davra suhbatlari, ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish va shu kabilarni misol qilib o'tish mumkin.

Agar 10-12 yillar muqaddam intellektual migratsiya, asosan, Bolonya deklaratsiyasiga a'zo bo'lgan mamlakatlar hududlariga yo'naltirilgan bo'lsa, so'nggi yillarda Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur kabi mamlakatlarning yetakchi universitetlari intellektual migratsiyani jalb etishda faol ishtirok etmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida ushbu jabhada Qozog'iston yetakchilik qilishga harakat qilmoqda va ushbu sohada ma'lum ma'noda ijobiy, samarali natijalarga erishdi.

Umuman olganda, intellektual migratsiyani ifodalovchi ushbu jarayonlar, birinchi navbatda, yuqori ta'lim sifatini amalga oshishini talab qiladi. Agar XXI asrning birinchi o'n yilligida ta'lim olish diplomli mutaxassis bo'lish uchun o'zining so'nggi damlarini kechirgan bo'lsa, so'nggi o'n yillikda esa raqobatbardosh ta'lim omili yuqori o'ringa chiqdi. Istedodli va qobiliyatli yoshlar "milliy chegara"larni buzib, ba'zan virtual, ba'zida grant loyihalari orqali intellektual migrantlarga aylanib bormoqdalar. Ta'kidlanganidek, intellektual migratsiya kishilik tarixining barcha bosqichlarida

kuzatilgan hodisalarni takrorlashga harakat qiladi. Tarixda kuzatilganidek, yuqori toifali mutaxassislarning ish izlab yoki o'zlarini namoyon etish maqsadida bir qator chegaralarni bosib, uzoq hududlarga ketishlari ko'pincha imkonsiz sharoit va zaruratni taqozo etib kelgan. Asosiy ishchi kuchi bilan birga intellektual migrantlarni eksport qiluvchi va qabul qiluvchi davlatlar o'rtasida azaliy bog'liqlik shakllandi. Turkiya va Polsha o'z migrantlarini Germaniyaga; Pokiston va Hindiston Buyuk Britaniyaga; Jazoir, Tunis va Marokash Fransiyaga, Xitoy va Fillipin AQShga doimiy yuborishda ishtirok etmoqda. Mehnat migrantlarining farzandlari istiqbolda intellektual migrant sifatida o'zi kelgan mamlakatga sifatli xizmat qilishi mumkin.

### **Tarixiy makondagi aql migratsiyasi**

Antik davr va o'rta asrlarda qayerda shaharsozlik yoki ma'lum ma'nodagi bozor talablari shakllangan bo'lsa, ko'plab taniqli ustalar, mohir duradgorlar, taniqli olimlar, iqtidorli o'qituvchilar o'zlarining xavfsizligi nuqtayi nazaridan yashash joylarini tez-tez o'zgartirib turishga majbur bo'lganlar. Biz tarixdan bilamizki, buyuk aql egasi Leonardo do Vinchi Italiyadan Fransiyaga ketishga majbur bo'lgan. Ibn Sino va Forobiyning, Al Buxoriy va At Termiziyning barcha buyuk asarlari o'zga mamlakatlarda ijod qilinib, yozilgan va nashr qilingan. Ko'plab aql migrantlarining hayot yo'llari halokatli yakun topgan. Jumladan, Mirzo Ulug'bek shogirdlarining keyingi hayot yo'li to'g'risida hozirgacha ilmiy ma'lumotlar kam.

Ammo hamma davrlarda ma'lum bir podshohlik va siyosiy tuzumlarda intellektual migrantlarga ehtiyoj sezuvchi, ularning erkin va samarali ijod qilishlariga sharoit yaratib beruvchi holatlar bo'lgan. Masalan: Bag'dod va Damashq xalifaligi, Xorazmda Ma'mun akademiyasi, Misrda Al Ashar universiteti faoliyati, qadimgi Angliyada Oksford va Kembridj universitetlari bunga misol bo'la oladi. Bag'dodda xalifa Al Ma'mun asos solgan Islom akademiyasi "Bayt al' hikma," Misrdagi Aleksandriya kutubxonasi, shuningdek, 1004-yilda tashkil etilgan Dar al-Ilm muassasi, Podshoh Ashshurbanapa qarori bilan Iroqda tashkil topgan Ashshurbanapa kutubxonasi, hozirgi Ispaniyaning muxtor respublikasi hisoblangan Andalusiyadagi ilm va ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarda shu davrlar intellektual migrantlari hissasi katta bo'lgan.

Shunday bo'lsa-da, davlatchilik va xalqlarning yuksak ilmiy zakovatiga barham berish yoki butunlay yo'q qilib tashlash uchun turli xil madaniy zo'ravonliklar uyushtirilgan. Aleksandr

Makedonskiyning "Avesto"ni yo'q qilishga bo'lgan harakatlari, Arab istilochilarining Ma'mun akademiyasi va Xorazm akademiyasi faoliyatiga chek qo'yishi, Chingizxon bosqinidan keyin o'n minglab kutubxonalarining yoqib yuborilishi, bir tomondan, yuksak ma'naviyatga zarar yetkazgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, intellektual migratsiyani ham yuzaga keltirgan deyish mumkin. Shundan kelib chiqib ta'kidlash joizki, intellektual migratsiya ijtimoiy fenomen sifatida birinchidan, yuksak tarixiy xususiyatlarni qamrab oladi va ikkinchidan, aniq ko'rsatkichlarga ega maqsadli jihatlarni amalga oshiradi. So'nggi kunlarda qo'shni Afg'onistonda bo'layotgan ayanchli va qo'rqinchli hodisalar natijasida, mamlakatni birinchi navbatda intellektual salohiyatli, iste'dodli kishilar tark etmoqda. Shunday ham ko'plab ijtimoiy muammolar botqog'iga botib qolgan mamlakat uchun bu katta yo'qotish bo'lib qoladi.

### **Xulosa**

Zamonaviy intellektual migratsiyaning tarixiy tajribadan farqi zamonaviy jamiyatlarda uni tizimga solish, tartibga keltirish, maxsus ma'muriy ta'sirlar o'tkazish, rasmiylashtirish va qonuniylashtirish jihatlari mavjud. Ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy raqobatlar davrida intellektual migratsiya ko'p holatlarda "yumshoq kuch" vazifasini bajarsa-da, ayrim holatlarda dunyo siyosatida "qattiq yoki keskin kuch" rolini ham amalga oshirishi mumkin. Tabiiyki, bunday hodisalar umumiy aloqalar uzilgan va o'zaro bog'lanish istagi yo'q bo'lgan holatlarda namoyon bo'ladi.

Globalashgan dunyoda ijtimoiy voqeliklar turli xil tahdidlar bilan bog'liq hodisalarni izchil yoritish bilan mustahkamlanadi. Shu asosda, mamlakatda ilm-fanni yanada rivojlantirish, yuqori kasbiy malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni yetkazish, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari huquq manfaatlarini himoya qilish tizimi bilan mustahkamlandi. Bu borada olib borilayotgan islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda.

Migratsiyaning sotsial voqeliklari va u bilan bog'liq tasniflarga nisbatan an'anaviy qarash va baholash prognozlari o'rnini yangicha ilmiy yondashuvlar bilan xulosa chiqaradigan dunyoqarashning paydo bo'lishi kuzatiladi. Bunday yangicha yondashuv zarurati bugungi ijtimoiy taraqqiyot bosqichida mamlakatning demokratik siyosati va jamiyat a'zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda rivojlanib, jadal sur'atlarda takomillashib bormoqda. Chunki migratsiya jarayonlarining har qanday shaklini chuqur anglash, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlardagi barqarorlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillardan biri sanaladi. Ko'pqirrali

dunyoning intellektual qiyofasi uzoq yillardan beri "aqli" migratsiyasi sifatida o'z manzarasini yuqori sifatli ishchi kuchi ko'rinishida namoyon etayotganligi ijtimoiy-ma'naviy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shuningdek, zamonaviy migratsiya jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari, uning oqibatida yuzaga kelayogan global muammolar jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, xususan, milliy mentalitet va identiklikdagi o'zgaruvchan hodisalarni o'rganishga majbur qilmoqda. Yoshlar intellektual migratsiyasining turli xil shakl va yo'nalishlarda namoyon bo'lishi, uning yoshlar, xususan, talabalar hayotida "xalqaro migrant", "intellektual sirkulyatsiya", "intellektual oqim" ko'rsatkichlari orqali ijtimoiy muhitning harakatlanuvchi, mobil hodisasi sifatida o'zaro ilmiy, madaniy integratsiya kontekstida sodir bo'layotganligi mavjud muammoning jiddiy ijtimoiy hodisa ekanligini anglatadi.

### **Adabiyotlar**

- O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining FJSHMQMI 2013-y., 2015-y. va 2019-yillarda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari. 2008 – 2018-yillar ma'lumotlari.
- Лебедева, М. М. 2014. "Интеллектуальная миграция в современном мире". *Миграционные процессы в конце XX – начале XXI в.в. Основные причины особенности современной интеллектуальной миграции*. Москва: МГИМО Университет.
- Высшие учебные заведения г. Москвы*. 2012. Государственный орган Федеральной службы государственной статистики по г. Москве. Москва.
- Шишкина, С. В. 2009. "Формы и причины интеллектуальной миграции". Вестник Костромского государственного университета им. Н.А.Некрасова 2(15): 181 – 185.
- Фукуяма, Ф. 2015. *Конец истории и последний человек*. Москва: Изд-во Аргай Литагент "АСТ".
- Лебедева, М.М. 2014. *Интеллектуальная миграция в современном мире*. Учебное пособие. Москва: МГИМО-Университет.
- Болонский процесс: проблемы и перспективы*: (сборник статей). Под ред. М.М. Лебедевой. Москва (Оргсервис-2000), 2006.
- Экспорт образовательных услуг*.  
*Сетовой университет СНГ*.  
*Сетовой университет ШОС*.  
[https://www.unipage.net/ru/cities\\_student\\_russia](https://www.unipage.net/ru/cities_student_russia)

# The Impact of Globalization Processes on Educational Migration

Fathulla Abduvaliev<sup>1</sup>

## Abstrakt

In this article, the author puts forward scientific terms such as “intellectual migration”, “educational migration”, the departure of “intellectuals” from the country, the explanations of educational migration in the system of socio-economic sciences, and he makes a sociological comparative analysis of the social characteristics of the mobile, i.e., constantly moving, layers of the population. Stages of historical formation of education or intellectual migration, scientific basis of periodic (circulation) importance, criteria of its emergence, and social reasons are scientifically classified. Information about the society, globalization of the world has become the object of research of scientists and researchers, along with the subject of migration, which has become a special topic in the next twenty years. As the scale of the problem became larger and more popular, the debates of the general scientific community about migration became the main topic in scientific discussions. The views of “migration of personnel with high professional skills”, “intellectual flow”, “outflow of intellectual potential”, “outmigration of talented and intelligent people” put forward by the author and the experts of modern classical sociology are systematically analyzed from the sociologist’s point of view.

**Key words:** *migration, intellectual migration, educational migration, innovation, globalization, integration, multiculturalism, identity, mentality, stereotype.*

## References

- O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining FJSHMQMI 2013-y., 2015-y. va 2019-yillarda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari. 2008 – 2018-yillar ma‘lumotlari.
- Lebedeva, M. M. 2014. “Intellectualnaya migratsiya v sovremennom mire”. *Migratsionnie protsessi v konse XX – nachale XXI v.v. Osnovnye prichini osobennosti sovremennoy intellektualnoy migratsii.* Moskva: MGIMO Universitet.
- Visshie uchebnie zavedeniya g. Moskvi.* 2012. Gosudarstvenniy organ Feder-

---

<sup>1</sup> *Abduvaliev Fathulla* – Doctor of Sociological Sciences (PhD), Advisor to the Rector of Tashkent State Technical University on Youth Affairs

**E-mail:** fatxullaabduvaliyev@gmail.com

**ORCID ID:** 1214-3244-4222-3245

**For citation:** Abduvaliev, F. 2025. “The impact of globalization processes on educational migration”. *Uzbekistan: language and culture* 4: 152 – 169.

- alnoy slujby gosudarstvennoy statistiki po g. Moskve. Moskva.
- Shishkina, S. V. 2009. "Formi i prichini intellektualnoy migratsii". Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo universiteta im. N.A.Nekrasova 2(15): 181 – 185.
- Fukuyama, F. 2015. *Kones istorii i posledniy chelovek*. Moskva: Izd-vo Array Litagent "AST".
- Lebedeva, M.M. 2014. *Intellektualnaya migratsiya v sovremennom mire*. Uchebnoe posobie. Moskva: MGIMO-Universitet.
- Bolonskiy protsess: problemy i perspektivy: (sbornik statey)*. Pod red. M.M. Lebedevoy. Moskva (Orgservis-2000), 2006.
- Eksport obrazovatelnykh uslug*.  
*Setovoy universitet SNG*.  
*Setovoy universitet ShOS*.  
[https://www.unipage.net/ru/cities\\_student\\_russia](https://www.unipage.net/ru/cities_student_russia)